

## BANK SOHASI TERMINOLOGIYASI YORDAMIDA TALABALARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLARING AFZALLIKLARI

*NavDPI Ingliz tili va adabiyoti 1-kurs magistri:*

*Davronova Munisa Alijon qizi*

*Ilmiy rahbar: Istamova Dilnoza Sa'dulloyevna*

### Abstrakt

Banks sohasi terminologiyasini o'rgatishda turli metodlardan foydalanish ushbu soha talabalarining og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali natijaga erishishining o'ziga xos usulidir. Og'zaki nutqni rivojlantiruvchi metod va strategiyalarini o'quv jarayonlarida qo'llash orqali o'qituvchi talabalarining darsdagi faolliklari hamda qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Garchi hozirgi kungacha kasbiy terminologiyani o'rgatishda bir qancha usullar va metodikalar qo'llanilgan bo'lsada, ularning aynan qaysilari kasbiy nutqni rivojlantirish uchun samarali ekanligi haqida yetarli bilimga ega emasmiz. Ushbu maqolada biz kasbiy nuqtani rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga va yuqori natijaga ega bo'lgan bir qancha metodlar va ularning afzalliklarini ko'rib chiqamiz. Biz bank sohasi yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarining dars jarayonlari haqidagi fikr-mulohazalarini bilish maqsadida ular o'rtasida so'rovnomani o'tkazdik, bundan tashqari darslarni ma'lum muddat davomida kuzatib tahlil qildik. Kuzatishlarimiz davomida shunday xulosaga keldikki, talabalar dars davomida individual topshiriqlarga qaraganda jamoaviy topshiriqlarni bajarishni afzal ko'radilar. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham ularning darsda yuqori foizdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot talabalarining kasbiy nutq kompetensiyasini o'stirishda zamonaviy metodikadan foydalanishning o'ziga xos afzalliklarini izohlaydi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ustunliklari yoritib o'tiladi.

### Abstract

The use of various techniques in teaching the terminology of the Banking field is a unique way for students of this field to achieve an effective result in the development of oral speech. By applying the methods and strategies that promote oral speech in educational processes, the teacher serves to increase students' activity and interests in the classroom. Although, to this day several methods and methodologies have been used to teach professional terminology, we do not have sufficient knowledge of which exactly are effective for the development of professional speech. In this article, we will consider several methods and their advantages that have a specific significance and high result in the development of a professional point. We conducted a survey between them in order to find out the feedback of students studying in the direction of the

banking industry about the course processes, in addition, we analyzed the classes by observing them for a certain period of time. During our observations, we came to the conclusion that students prefer to complete team assignments over individual assignments during the course of the lesson. Also, the use of modern technologies ensures their active participation in the lesson in a high percent. This study explains the specific advantages of using modern methodology in the cultivation of professional speech competence of students. In addition, this study highlights the advantages of using modern technologies.

### Абстракт

Использование различных методов обучения терминологии банковского дела является своеобразным способом достижения учащимися данной области эффективного результата в развитии их устной речи. Применяя методы и стратегии развития устной речи в процессе обучения, учитель способствует повышению вовлеченности и интереса учащихся в классе. Хотя на сегодняшний день при обучении профессиональной терминологии используется несколько методов и методик, мы не располагаем достаточными знаниями о том, какие именно из них эффективны для развития профессиональной речи. В этой статье мы рассмотрим несколько методов и их преимущества, имеющие особую значимость и высокую результативность в развитии профессиональной точки зрения. Мы провели опрос среди студентов, обучающихся в области банковского дела, чтобы узнать их отзывы о процессах уроков, а также провели мониторинг и анализ уроков в течение определенного периода времени. В ходе наших наблюдений мы пришли к выводу, что учащиеся предпочитают выполнять командные задания во время урока, а не индивидуальные. Также использование современных технологий обеспечивает высокий процент их активного участия в уроке. Данное исследование объясняет специфические преимущества использования современной методики в развитии профессиональной речевой компетенции учащихся. Кроме того, в этом исследовании будут освещены преимущества использования современных технологий.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy terminologiya, metod, metodika, texnika, strategiya, kompetensiya og‘zaki nutq.

**Keywords:** professional terminology, method, methodology, technique, strategy, competence oral speech.

**Ключевые слова:** профессиональная терминология, метод, методика, приемы, стратегия, компетенция устной речи.

## Kirish

Kuchli nutq qobiliyatlarini rivojlantirish hayotning turli jabhalarida, shu jumladan ta'lim va kasbiy sharoitlarda samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir. Muayyan soha doirasida, jumladan bank sohasida ta'lim oluvchi talabalarga ushbu kasbning termin va tushunchalari yordamida interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tish ularning og'zaki nutq kompetensiyasini o'stirishda yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar rolli o'yinlar, videolar, flesh-kartalar va grafikalar kabi turli xil dars texnikalaridan foydalangan holda nutq qobiliyatini oshirishlari mumkin. (Derakhshan, Kalili, Beheshti, 2016). Shuning uchun dars jarayonlarida zamonaviy interaktiv metod va strategiyalarni qo'llash nafaqat o'qituvchi, balki talabalar uchun ham bir qancha afzalliklarga ega.

Tajriba va kuzatishlar jarayonida sohaviy terminologiya yordamida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi metodlar bo'yicha bir qancha individual va jamoaviy darajada ish olib boruvchi turli oqimlar paydo bo'ldi. Ehtiyojlar tahlili (Madkur, 2018), kommunikativ kompetensiya (Mahdi, 2015), kreativ o'qitish (Anil, 2017), xodim xulq-atvori (Shrestha, Parajuli, Paudel, 2019) kabi atamalar ilmiy munozaralarning bir qismi bo'ldi. Og'zaki nuqtani rivojlantirishda foydalaniladigan metod va strategiyalar ta'lim sohasi doirasidagi faoliyat olib boruvchilar uchun yangilik emas va yuqoridagi atama va tushunchalar uning bir qismini tashkil etadi.

Ushbu maqolada shu paytgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan va boyitilmagan bank sektori talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini kasbiy terminologik lug'atlar yordamida rivojlantiruvchi usul va metodlar va ularning foydalari to'g'risida so'z boradi. Oviedo va Charpentierlarning (2023) "Moliya sektori uchun kasbga yo'naltirilgan ingliz tili tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari" nomli maqolasida talabalar o'z kasblari doirasida ishlatiladigan lug'atlar va terminlar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak, chunki bu bilim ularga ingliz tili bilan bog'liq bo'lgan holatlarda asqotadi. Ushbu sohada gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish bank-moliya sektori sohasida muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan talabalar uchun juda muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rolli o'yinlar talabalarga gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga bo'lgan ishonchini oshirishga imkon berdi. Shuningdek, u talabalarni amaliy moliyaviy hisobot masalalarini yuqori sifatda aks ettirishga undaydi. Shunday qilib, natijalar shuni ko'rsatadiki, rolli o'yin modeli bank-moliya sohasi doirasidagi mavzular orqali dars jarayonida qo'llanilganda yaxshi natija beradi (Lee, Cheuk, Nikol 2020).

Hozirgi vaqtda og'zaki muloqot va taqdimot ko'nikmalari bank-moliya ta'limining muhim tarkibiy qismidir. Talabalar o'zlarining samarali taqdimotlaridan nimani kutayotganlarini bilsalar, guruhlar bilan hamda individual taqdimotlarni o'tkazsalar va



o'qituvchidan doimiy fikr-mulohazalarni olsalar, og'zaki nutq ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. (Kerbi, Romine, 2010).

Ushbu davrgacha ta'limda qo'llanilib kelayotgan og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasi ancha keng qamrovga ega. Biroq aynan qaysi usul va texnikalardan foydalanish bank sektori talabalari uchun samarali bo'lishini, ularni qay qanday qilib tez sur'atlarda rivojlanib, o'zagarib borayotgan bank sohasi terminlari bilan bog'lab dars o'tish ishlab chiqish ushbu yo'nalishda ko'proq izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Soha doirasida ishga jalb etilayotgan yangi kadrlardan ingliz tilini mukammal bilish hali ham talab qilinadi. Chet ellik mijozlar yoki chet eldagi hamkor banklar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan ko'plab xodimlar ingliz tilidan foydalanadilar, ammo bu xodimlar soni avvalgi davrlarga nisbatan kamaydi (Vladimir Vracharich, 2016 yil 22-noyabr).

Julie Prattenning (2013) ta'kidlashicha, terminologiyaning tez va doimiy o'zgarishi moliyaviy va iqtisodiy sohalarga xosdir. Uning qo'shimcha qilishicha, barcha yangi atamalar va iboralar bozor iqtisodiyoti doirasida yuzaga keladigan va rivojlanayotgan noyob vaziyatlarga javoban paydo bo'ladi. Yillar davomida ingliz tili asta-sekin turli mamlakatlar banklari o'rtasidagi asosiy aloqa vositasiga aylandi va ma'lum bir mamlakatning rasmiy tiliga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu tadqiqot jarayonida kasbiy terminologiyaning o'ziga xosligi va ushbu terminalogiyadan foydalangan holda qanday metod va strategiyalarni qo'llab gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishning bank sektori talabalari uchun afzalliklari haqida fikr va mulohazalar keltiriladi.

Biz tadqiqotimizga jami 7 ta savoldan iborat bo'lgan so'rovnomanini iqtisodiyot universiteti 2-bosqich talabalariga taqdim ettik va ularning fikr mulohazalaridan xulosa chiqarish orqali yondashdik. Ushbu so'rovnoma orqali talabalarning soha doirasida o'z bilim va ko'nikmalariga bo'lgan tanqidiy qarashlari va dars jarayonlari haqida umumiy fikrlarini yoritib berish maqsad qilib qo'yilgan. Mazkur tadqiqot natijalari sohaga oid bilimlarning oshishiga hissa qo'shadi. Chunki u orqali talabalarning fikrlaridan kelib chiqib dars jarayoniga qanday yondashish va qaysi uslublardan foydalanish samarali bo'lishini aniqlash imkoni ortadi.

Ushbu tadqiqot talabalarning fikr-mulohazalariga tayangan holda ish olib borish va ularning bilim-ko'nikmalari darajasini hisobga olgan holda kasbiy nutq kompetensiyasini oshirish imkonini beruvchi xulosalarni taqdim etadi. Bunday rivojlanishga erishish nafaqat o'qituvchi, balki talabalardan ham mehnat talab etishi, ya'ni ikki tomonning samarali hamkorligiga bog'liqligi namoyon bo'ladi. Albatta, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili yo'nalishida dars beruvchi o'qituvchi talabalarning yoshi, darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars tuzilmasini va strategiyalarini

ishlab chiqishi, ayniqsa moliyaviy terminlarni qo‘llab mashg‘ulotlar tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maqolaning asosiy qismi quyidagicha tuzilgan:

Birinchi dan kasbiy nutqni ko‘nikmalarini oshirishning bank sohasi talabalari uchun foydalari qay darajada ekanligi va sohaviy lug‘at va tushunchalar yordamida gapirishni qanday qilib rivojlantirish metod va usullarini qo‘llash adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali aks ettiriladi. Ikkinchi dan, ushbu tadqiqotning nazariy asosi, tashkiliy o‘ziga xoslik nazariyasi tavsiflanadi va mavjud hodisa bilan bog‘lanadi. Uchinchi dan, tavsiya etilgan tadqiqot loyihasi, ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish tushuntiriladi. Nihoyat, biz natijalar haqida hisobot beramiz va muhokama qilamiz, xulosalar chiqaramiz va keyingi tadqiqotlar uchun cheklovlar va imkoniyatlarni aks ettiramiz.

### Asosiy qism

Ta‘lim sohasida talabalarning og‘zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish ularning umumiy o‘sishi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish ayniqsa yuqori ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalardan biri bank sohasi hisoblanadi. Bank sohasi yuqori sifatdagi muloqotga tayanar ekan, kuchli og‘zaki nutq qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalar ushbu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun yaxshi tajribaga ega bo‘lishlari muhimdir. (Shrestha va boshq., 2020). Bank sohasi terminologiyasidan foydalangan holda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini oshirish uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin. Talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda bank terminologiyasini o‘z ichiga olgan usullardan foydalanishning afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarga sohaga xos til va terminologiya bilan tanishishga yordam beradi. Bank terminologiyasi bilan tanishish bank sohasida ishlashga intilayotgan talabalar uchun juda muhimdir, chunki bu sohaning ichki dunyosini samarali tushunish va muloqot qilish imkonini beradi. Talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda bank terminologiyasidan foydalanishning yana bir afzalligi shundaki, bu ularning murakkab moliyaviy tushunchalarni mukammal o‘rganib u orqali samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi. (Grey & Murray, 2011). Og‘zaki nutq amaliyotida bank terminologiyasidan foydalangan holda dars o‘tish, talabalar uchun moliyaviy atamalar va tushunchalarni chuqurroq tushunib, ularga g‘oyalarni aniqroq va professional tarzda etkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda dars jarayonlaridagi mashg‘ulotlarga bank terminologiyasini kiritish talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va professionallikni rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalar og‘zaki nutq faoliyatida bank terminologiyasiga duch kelganda ulardan faol foydalansalar, ular sohaga xos tildan foydalanishda qiyinchilikka duch kelmaydilar. Ushbu ishonchli muloqot tajribasi nafaqat og‘zaki nutq qobiliyatlarini yaxshilaydi, balki o‘rganuvchilarni professionallik muhim bo‘lgan bank sohasidagi haqiqiy hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Bundan tashqari, talabalarning og‘zaki

nutqini rivojlantirishda kasbiy terminologiyadan foydalanish talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bank terminologiyasi bilan shug'ullanish va muhokama qilish orqali talabalarda ushbu atamalarning ma'nosi va mazmuni haqida tanqidiy va kreativ fikr yuritish imkoniyati oshadi. Ularga aniq atamalarning ahamiyatini va ularning bank sohasidagi ta'sirini tahlil qilish va baholash talab etiladi. Ushbu tanqidiy fikrlash jarayoni ularning umumiy muloqot qobiliyatlarini oshiradi va ularni bank kasbining murakkabligi va muammolariga tayyorlaydi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda bank terminologiyasini kiritish bir qator afzalliklarga ega. (Shrestha va boshq., 2019) Bularga sohaga xos til bilan tanishish, murakkab moliyaviy tushunchalarni etkazish qobiliyati, ishonch va professionallikni oshirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kiradi., (Zivkovich 2019).

Bank terminologiyasidan foydalangan holda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usullarni kiritish talabalar uchun ko'plab afzalliklarni berishi mumkin. Bir afzalligi shundaki, u talabalarga bank sohasidagi kelajakdagi martabalariga bevosita mos keladigan til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Og'zaki nutq amaliyotida bank terminologiyasidan foydalangan holda, talabalar o'zlarining kasbiy hayotlarida duch keladigan o'ziga xos til va lug'at bilan tanishishlari mumkin. Bundan tashqari, og'zaki nutq faoliyatida bank terminologiyasidan foydalanish talabalarga moliyaviy va biznes sharoitida samarali muloqot qilishda ishonch va malakani oshirishga yordam beradi. Yana bir afzalligi shundaki, bank terminologiyasini og'zaki nutq faoliyatiga kiritish o'quv jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli va dolzarb qilishi mumkin.

Bank ishi bilan bog'liq hayotiy misollar va ssenariylardan foydalangan holda talabalar o'zlarining tillarini o'rganishning bevosita qo'llanilishini ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari, og'zaki nutq faoliyatida bank terminologiyasidan foydalanish talabalarga mavzuni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Ular nafaqat bank bilan bog'liq aniq atamalar va so'z birikmalarini o'rganadilar, balki ularning ortidagi moliyaviy tushunchalar va tamoyillar haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar. Bu chuqurroq tushunish ularning umumiy tushunish va muloqot qobiliyatlarini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, og'zaki nutq faoliyatida bank terminologiyasidan foydalanish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantiradi. Talabalar ko'pincha foiz stavkalarini hisoblash yoki investitsiya imkoniyatlarini baholash kabi moliyaviy ma'lumotlarga asoslangan holda tahlil qilishlari va qarorlar qabul qilishlari shart. Bank terminologiyasini og'zaki nutq faoliyatiga kiritish orqali talabalar tanqidiy fikrlashga va o'z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashga da'vat etiladi. Xulosa qilib aytganda, bank terminologiyasini og'zaki nutq faoliyatiga kiritish talabalar uchun bir qancha afzalliklarni beradi. Bu ularga kelajakdagi yuqori tajriba uchun qo'llaniladigan til ko'nikmalarini



rivojlantirishga yordam beradi, moliyaviy aloqada ishonch va malakani oshiradi, o'rganishni yanada qiziqarli va dolzarb qiladi, moliyaviy tushunchalarni tushunishni chuqurlashtiradi va tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### Metodologiya

**So'rovnoma:** Ushbu so'rovnoma talabalar o'rtasida bank terminologiyasi bo'yicha o'z bilimlari borasidagi fikrlarini bilish uchun olib va 7 ta savoldan iborat.

**So'rovnoma obyekti:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari

**Talabalar soni:** 25 ta

1. Bank terminologiyasi bo'yicha joriy bilimlaringizni qanday baholaysiz?	
Yuqori	5-20%
Yaxshi	9-36%
Qoniqarli	6-24%
Qoniqarsiz	5-20%

2. Bank terminologiyasini tushunishda va o'rganishda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?	
Qiziqarli materiallar kamligi	8-32%
Murakkab termin va tushunchalar	7-28%
Amaliyotning kamligi	6-24%
Bank sohasining ichki dunyosiga to'liq kirmaslik	4-16%

3. Sizningcha, iqtisodiyot ta'lim muassasalari uchun bank terminologiyasi va amaliyotidagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun o'quv dasturlarini muntazam yangilab turish qanchalik muhim?	
Juda muhim	12-48%
Ixtiyoriy	9-36%
Muhim emas	4-16%

4. Bank terminologiyasini yuqori darajada o'rganish uchun qaysi metodlar samarali deb o'ylaysiz?	
An'anaviy ma'ruzalar	3-12%

Amaliy mashg'ulotlar	8-32%
Interaktiv onlayn darslar	9-36%
Mustaqil ta'lim	5-20%

<b>5. Ingliz tili darslari jarayonlarida ustozingiz zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanadimi?</b>	
Ha	10-40%
Yo'q	15-60%

<b>6. Dars jarayonlarida qay tarzda ishtirok etishni afzal ko'rasiz?</b>	
Guruh	7-28%
Individual	8-32%
Ikkalasi ham	10-40%

<b>7. Og'zaki nutqni (speaking) rivojlantirishda qaysi usullar samarali deb bilasiz?</b>	
An'naviy mashg'ulotlar	2-8%
Interaktiv metodlar (debat, o'yin, keyslar)	16-64%
Mustaqil ta'lim	7-28%

### Natija va muhokamalar

Yuqoridagi so'rovnoma ko'ra talabalarning ko'proq qismi terminologiya bo'yicha o'z bilimlarini yaxshi deb hisoblaganlar, o'rtacha qismi esa buni qoniqarli baholaganlar.

Bunday natijaning sababini ko'pchilik talabalar dars jarayonlarida va darsdan tashqarida o'rganish va foydalanish uchun materiallarning kamligi va amaliyotning yetishmasligi deya hisoblaganlar.

Ta'lim muassasasi uchun o'quv dasturlarini muntazam yangilish kerakligini yuqori foizdagi talabalar ma'qullaganlar. Ularning fikricha bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank sohasi terminlarini chuqur o'rganishda amaliy mashg'ulotlar va interaktiv darslarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Yuqoridagi so'rovnomada ham talabalar ko'p foizda buni ma'qullaganlar.

Albatta, dars jarayonlarida zamonaviy metod va texnikalardan foydalanish va ularni muntazam rivojlantirib borish o'qituvchilarning faoliyatida va talabalarning o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. So'rovnomadan ko'rinadiki deyarli ko'plab ustozlar bunday metodlardan foydalanishga harakat qiladilar.



Mashg'ulotlarni guruhli va individual tarzda olib borish ustozning mahoratiga bog'liq va bu mashg'ulot turiga ham bevosita bog'lanadi. Yuqorida ko'p talabalar ikki xil tarzda ham ishtirok etishni ma'qullab o'tganlar.

Og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun darslarda yuqori sifatdagi metod va strategiyalar hamda zamonaviy interaktiv platforma yordamida yaratilgan o'yinlar,debatlar zaruriy hisoblanadi. Bu talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. So'rovnomadan natijasida ham ushbu fikr o'z tasdig'ini topgan va ko'plab talabalar tomonidan ma'qul ko'rilgan.

### Xulosa

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek terminologiyani puxta o'rganish va shu orqali og'zaki nutq qobiliyatlarini tivojlantirish bank sohasi talabalari uchun ushbu soha doirasida o'z o'rinlarni egallash va chuqur bilimli kadr sifatida bugungi zamonaviy dunyo talablariga javob bera olishlarni ta'minlaydi. Buning uchun ta'lim jarayonida ular o'z ehtiyojlarni chuqur anglab yetishlari va shunga mos tarzda ilm o'rganishga harakat qilishlari lozim. Albatta, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili yo'nalishida dars beruvchi o'qituvchi talabalarning yoshi, darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars tuzilmasini va strategiyalarini ishlab chiqishi, ayniqsa moliyaviy terminlarni qo'llab mashg'ulotlar tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan ko'rinib turadiki, rivojlanish faqat bir tomonga emas har ikkala tomonning muvofiq harakatlariga bog'liq. O'qituvchidan yuqori malaka va talabadan soha doirasida bilim olishga yuqori qiziquvchanlik talab etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ali Derakhshan, Atefeh Nadi Khalili, Fatima Beheshti "Developing EFL Learner's Speaking Ability, Accuracy and Fluency" Canadian Center of Science and Education, 2016
2. Ahmad Madkur "English for Specific Purposes: A Need Analysis on English Course in Islamic Banking Department" Binus University 2018
3. Beena Anil "Applying Innovative Teaching Methods in a Second Language Classroom". International journal of research in English education, 2017
4. Damien Lee, Sharon Cheuk, Esmie Nichol "Authentic Learning though Role Play in Learning Financial Reporting: Malaysian Undergraduate Perspective" International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 2020, B. - 42-58
5. Dawood Ahmed Mahdi "Strategies and Techniques for Fostering Oral Communication Confidence in EFL Students" Arab World English Journal (AWEJ), Vol. 6, No. 2, p. 162-173, June 2015

6. Debra Kerby, Jeff Romine “Develop Oral Presentation Skills Through Accounting Curriculum Design and Course-Embedded Assessment” Journal of Education for Business, 2010 B.-172-179
7. Francisco Alberto Chavarría Oviedo, Karla Avalos Charpentier “English for Specific Purposes Activities to Enhance Listening and Oral Production for Accounting”. Latin American Association for the Advancement of Sciences, 2023
8. Gray, Murray “A distinguishing factor’: Oral Communication Skills in New Accountancy Graduate” Taylor & Francis, 2011, B.- 275-294
9. Milan Živković, Sonja Sukovic, Lazar Vrkatić “Role and Importance of English Language Usage in the Banking Sector in Serbia” University of Banja Luka, Faculty of Philology, 2019
10. Shrestha, S., Parajuli, S., & Paudel, U. R. (2019). “Communication in Banking Sector: A Systematic Review”. Quest Journal of Management and Social Sciences, 1(2), B.- 272–284.
11. Shrestha, Devkota, Paudel, Bhandari, Parajuli “Bankers' Communication Know-how: An Analysis from Commercial Banks of Kathmandu valley” Quest journal of management and social sciences, 2020